

## INNOVATSION KLASTERLARNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*i.f.n., prof. Qurbonov Alisher Boboqulovich*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*ORCID: 0000-0002-3208-5657*

*[qurbonov7721@mail.ru](mailto:qurbonov7721@mail.ru)*

***Bekmurodova Saodat Ikromovna***

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*ORCID: 0009-0001-8388-4854*

*[saodatbekmurodova824@gmail.com](mailto:saodatbekmurodova824@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada klasterlarning iqtisodiyot fanida vujudga kelish evolyutsiyasi hamda olimlarning uslubiy yondashuvlari tahlil etilgan. Shuningdek, klasterlarning sinergetik samarasi, trigger samarasini respublikamiz tadbirkorlik subyektlarida qo'llash yo'nalishlari ko'rsatilgan. Klasterlarning hozirgi holati tahlil etilib, xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** klaster, sanoat klasterlari, mahalliy sanoat, tadbirkorlik, sinergetik samara, trigger samarasi, klasterlarning "erkin bozor" va "qutblar" nazariyasi.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ИННОВАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ

*к.э.н., проф. Курбанов Алишер Бобокулович*

*Университет экономики и педагогики*

***Бекмуродова Саодат Икромовна***

*Университет экономики и педагогики*

**Аннотация.** В статье анализируется эволюция кластеров в экономике и методологические подходы ученых. Также обозначены направления применения синергетического эффекта кластеров и триггерного эффекта в нашей республике. Проанализировано современное состояние кластеров, представлены выводы и предложения.

**Ключевые слова:** кластер, промышленные кластеры, местная промышленность, предпринимательство, синергетический эффект, триггерный эффект, «свободный рынок» и «полюсная» теория кластеров.

## IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INNOVATION CLUSTERS

*PhD, prof. Kurbanov Alisher Bobokulovich*  
*University of Economics and Pedagogy*  
**Bekmurodova Saodat Ikromovna**  
*University of Economics and Pedagogy*

**Abstract.** *The article analyzes the evolution of clusters in the economy and the methodological approaches of scientists. The directions for applying the synergistic effect of clusters and the trigger effect in our republic are also indicated. The current state of clusters is analyzed, conclusions and proposals are presented.*

**Keywords:** *cluster, industry clusters, local industry, entrepreneurship, synergistic effect, trigger effect, "free market" and "polar" theory of clusters.*

### **Kirish.**

O'zbekistonda sanoatini innovatsion rivojlantirishning yangi yo'nalishi, raqobatda ustunlikni ta'minlash strategiyasi sifatida klasterlarni joriy qilish amaliyotiga e'tibor chuqurlashmoqda. Klasterlar ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatishni bir tarmoqqa to'plash, qo'shilgan qiymat zanjirini hosil qilishning samarali yo'nalishi sifatida raqobatbardosh mulkchilik shakllarining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Qisqa muddat mobaynida klaster usulida faoliyat yuritish o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatdi. Jumladan respublikamizda to'qimachilik sanoatida resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyalarni joriy yetildi. Yangi va zamonaviy korxonalarni barpo yetildi, yangi ish o'rinlarini yaratildi, yuqori qo'shilgan qiymatga yega tayyor mahsulot ishlab chiqarish rivojlandi. Shu bois shakllanayotgan va rivojlanayotgan klasterlar faoliyatini barqarorlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf yetish dolzarb vazifalar sifatida qaralmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Klaster ma'lum bir hududda o'zaro bog'langan korxonalarining iqtisodiy aglomeratsiyatsi ob'ekti sifatida hunarmandchilik ishlab chiqarish davridan beri ma'lum. Uning fanda samarali usul sifatida talqin yetilishi birinchilardan bo'lib, atoqli iqtisodchi olim Marshalning asarlarida paydo bo'ldi. Marshall (1993) ularni "Mahalliy sanoat" deb atadi. Keyinchalik "Sanoat hududlari" nomi keng tarqaldi. Hozirda yeng mashhur atama "klaster" esa ancha keyin paydo bo'ldi. Klaster alohida iqtisodiy tizim sifatida qaralishi mumkin (Бабкин и Шамина, 2008). Bu yesa ham davlat sanoat siyosatining rivojlanishiga, ham butun iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (Бабкин и др., 2013)

Bizning davrimizdagi klasterlar to'lqinining ko'tarilishi asosan vertikal integratsiyalashgan kompaniyalarning parchalanish jarayonlari bilan bog'liq. Buning sababi mahsulotlarning murakkabligining keskin o'sishi yedi - birinchi navbatda mashinasozlikda. Yakuniy mahsulotlarni yig'ishda ishlatiladigan oraliq mahsulotlar va butlovchi qismlarning soni va assortimenti ko'p marta oshdi. Bunday sharoitlarda barcha korxonlarning konsentratsiyasi bitta tom ostidagi ishlab chiqarish maydonchalari haqiqiy tanlov bo'lishni to'xtatdi. Muqobil variant - mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik, ya'ni klasterlar vujudga kela boshladi. Klaster yondashuvining asoschisi sifatida Porter (2005) klasterlarni "Geografik jihatdan qo'shni bo'lgan bir-biriga bog'langan kompaniyalar va ular bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalar guruhi" deb ta'riflaydi. Bunday yondashuvlar tarmoqlararo va tarmoq ichida sinergatik ta'sirni ifodalaydi.

Sinergiya samarasi ichki va tashqi qarshiliklarni, yutuqlar yig'indisini birlashtirganda paydo bo'ladi. Jamoa harakatini natijasini yerishish uchun kompaniyalar tuzilmalarini tashkil yetishda "Sinergiya" atamasi Bogdanov (1989), Ansoff (1999) tomonidan qo'llanilgan.

Sinerгиya deganda ikki yoki undan ortiq korxonalarining bir xil yo'nalishda birlashishi natijasida yuzaga keladigan strategik afzalliklar tushuniladi (www.viktorova-ts.ru, n.d.). Klasterlashning sinergetik ta'siri tufayli quyidagi imkoniyatlar vujudga keladi:

- raqobatdan oldingi imkoniyatlar;
- innovatsiyalarning tarqalishi;
- vertikal integratsiya;
- texnologik transfer, hayotiy sikl uzaytirilishi, gorizontal differentsiatsiya.

Klasterlar tadbirkorlarning imkoniyatlarini birlashtirgan yagona tizim sifatida shakllandi. Shu bilan birga bir-biriga bog'liq turli xil faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning o'rtacha xarajatlarini qisqartirdi. Tarmoqda mavjud bo'lmagan faoliyat turlarining hosil bo'lishiga imkon yaratdi. Bu yesa bir yo'nalishdagi ishlab chiqarish boshqa faoliyat turlariga senergetik ta'sir ko'rsatadi. Senergetik ta'sir mahalliy harakatlar oddiy individual harakatlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Shu munosabat bilan integral tuzilmaning salohiyati individual tuzilma a'zolari potentsiallaridan yuqori bo'ladi. Hamkorlik va samarali foydalanish natijasida uzoq muddatli istiqbolda barcha manfaatdor sheriklarning imkoniyatlari sinerjik yeffektga olib keladi. U yoki bu klasterni yaratish g'oyasi hududni batafsil o'rganish va tizimli yondashuvni talab qiladi. Kompaniyalar uchun unga kirish faqat bir-birining yonida joylashganligi yemas, balki foydali bo'lishi lozim. Klasterlarni yaratishda ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lmasligi kerakligini tushunish muhimligi infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatini yaratadi (Савелева, 2009).

Klaster iqtisodiyoti ijodkorlik muhitini yaratish va innovatsion faoliyatni shakllantirishni ta'minlash imkonini beradi. Jahon tajribasida klasterlarni shakllantirishda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi, 80-90-yillarda taklif qilingan klassik liberal yoki anglo-saxon yondashuvidir. M.Porter aytganidek, xo'jalik sub'ektlarining o'zini-o'zi tashkil yetishiga asoslangan "Yerkin bozor" mexanizmlari doirasida sodir bo'ladi. Ikkinchisi - "Qutblar" deb nomlangan zamonaviy Yevropa yondashuvi raqobatbardosh biznes hamda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan.


### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda sanoat klasterlarining nazariy-uslubiy asoslari, klasterlar va unga birlashgan tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulotlar bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston Respublikasida klasterlarning vujudga kelishi davlat tomonidan agrar tarmoqda sanoat integratsiyasini qo'llab - quvvatlash orqali sodir bo'lmoqda. Bu yesa xorijiy va mahalliy investorlarning yerkin faoliyat ko'rsatishi uchun me'yoriy - huquqiy xujjatlar asosida ta'minlandi. Agrar sohada qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashning ortda qolishi davlat aralashuvini taqozo qildi. Jumladan, agrar tarmoqda paxta - to'qimachilik, g'allachilik, meva - savzavotchilik, farmasevtika, qorako'lchilik, pillachilik klasterlari tashkil yetildi.

Qashqadaryo viloyatida 2023 yilda 180300 tonna tola ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022 yilga nisbatan 74.2 foizga o'sgan. Ip -kalava ishlab chiqarish 73,2 foizga, tayyor tikuv - trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 81.0 foizga ortgan, yog'-moy ishlab chiqarish 73.1 foizga ortgan. Ammo mato ishlab chiqarish, tayyor tikuv - trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi oshgan bilan, ishlab chiqarish xajmi kam. Shunday bo'lsa-da, ushbu ishlab chiqarish sohalari oldingi yillarda mavjud bo'lmagan. Klasterlarning sinergetik ta'sirida ushbu ishlab chiqarish yo'nalishlari sekin bo'lsa-da rivojlanmoqda.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida klasterlar soni, birlik.

Qashqadaryo viloyatida paxta – to'qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qilgan bulib, shundan, faqat 9-tasi ip-kalava, mato, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotiga klasterlarning kirib kelishining dastlabki ko'rinishlari xalos. 2017 yildan buyon agrar sohada klasterlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgan. Ammo xorijiy va mahalliy investorlarning bu yo'nalishga kirib kelish sekin kechdi. 2021-2023 yillardan boshlab klasterlar qayta ishlash sohalarini o'z o'rniga quyishni boshladi.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyati to'qimachilik klasterlarining innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish, marta
Sotishdan tushgan daromad	Mrld. so'm	141,3	211,2	1 152,5	3 412,8	4 837,9	34,2
Xarajat	Mrld. so'm	141,8	326,4	1 667,9	3 317,1	4 125,8	29,1
Sof foyda	Mrld. so'm	-0,53	-115,2	-515,4	95,6	711,9	x
Rentabellik,%	Mrld. so'm	x	x	x	2,9	17,3	x
Texnologik transfer xarajatlari	Mrld. so'm	227,6	1 181,04	1 765,9	1819,4	3 882,6	17,1
Asosiy vositalar	Mrld. so'm	178,8	713,4	1 012,6	1 365,8	1 789,2	10,0
Tovar moddiy zahiralar	Mrld. so'm	49,3	695,2	1 934,8	2 219,6	3 912,8	79,2
Ishchilar soni	Kishi	5 596	6 383	7 212	8 159	7 872	1,4

Qashqadaryo viloyatida innovatsiya faoliyatning natijalarini joriy qilish ob'ekti sifatida klasterlarni olishimiz mumkin.

Qashqadaryo viloyatida to'qimachilik sanoat asosida klasterlar shakllanib bormoqda. Chunki, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va sanoat bilan integratsiyasi rivojlantirishning boshqa imkoniyatlarini qilib bo'lmadi. Qashqadaryo viloyatida to'qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qiladi. Jami to'qimachilik klasterlari bo'yicha sotishdan tushgan daromad 2023 yilda 4837,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 34,2 martaga oshgan. Qilingan xarajatlar esa mos ravishda 29,1 martaga oshganligini 6- jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Sof foyda 2019-2021 yillarda ko'rilmagan. Faqatgina 2022-2023 yillarda

sof oyda ko'rilgan bo'lib, 2023 yilda sof foyda 41425,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022 yilga nisbatan 153,9 mlrd. so'mga kamaygan. Rentabellik darajasi mos ravishda 6,1 – 0,9 ni tashkil qilgan. Klasterlar tomonidan 2023 yilda texnologik tranferlar 3 882,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 17,1 martaga oshgan. 2019-2023 yillarda klasterlar bazasidagi asosiy vositalar 10,1 marga, tovar moddiy zahiralardan foydalanish esa 79,2 martaga ortgan. Hududiy nuqtai nazardan klasterlarning soniga nisbatan o'rtacha samardorlikni hisoblash muhim hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

**Qashqadaryo viloyati to'qimachilik klasterlarining o'rtacha samardorlik ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish,%
Sotishdan tushgan daromad	Mrld. so'm	7,435	11,117	60,658	179,621	254,625	34,2
Xarjat	Mrld. so'm	7 463	17,178	87,783	174,585	217,152	29,1
Sof foyda	Mrld. so'm	-0,278	-6,061	-27124,5	5,036	37,472	x
Rentabellik,%	Mrld. so'm	x	x	x	2,9	17,3	x
Texnologik transfer xarajatlari	Mrld. so'm	11,9	62,2	92,9	95,8	204,3	17,1
Asosiy vositalar	Mrld. so'm	9,4	37,6	53,3	71,9	94,2	10,0
Tovar moddiy zahiralalar	Mrld. so'm	2,6	36,6	101,8	116,8	205,9	79,2
Ishchilar soni	Kishi	295	336	380	429	414	1,4

Qashqadaryo viloyatida 2023 yilda har bir klasterga to'g'ri keladigan o'rtacha yalpi daromad 254,625 mlrd.so'mni tashkil qilgan, xarajatlar esa 217,152 mlrd.so'mga to'g'ri kelgan. Texnologik transfer xarajatlari esa 204,3 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

Klasterlar ichida o'rtacha daromad qiluvchi "Oqsaroy" klasterining samardorlik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Ushbu klasterda sotishdan tushgan daromad 445,7 so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 4,1 martaga oshib, xarajatlar esa 3,7 martaga o'sgan. Sof foyda 2023 yilda 121,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 212,6 mirtaga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2023 yilda texnologik transfer xarajatlari 2023 yilda 445,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 2,4 martaga oshgan.

3-jadval

**Qashqadaryo viloyati "Oqsaroy" klasterining samardorlik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish, marta
Sotishdan tushgan daromad	Mrld. so'm	108,6	137,8	167,5	180,1	445,7	4,1
Xarjat	Mrld. so'm	108,5	137,5	166,6	128,9	324,5	3,0
Sof foyda	Mrld. so'm	0,057	0,230	0,930	51,2	121,2	212,6
Rentabellik,%	Mrld. so'm	0,1	0,2	0,6	39,7	37,4	x
Texnologik transfer xarajatlari	Mrld. so'm	187,6	114,4	242,0	77,068	445,2	2,4
Asosiy vositalar	Mrld. so'm	152,8	206,4	211,1	244,5	34,7	2,2
Tovar moddiy zahiralalar	Mrld. so'm	34,7	95,6	145,2	74,6	180,6	5,2
Ishchilar soni	Kishi	1 740	1761	1824	1824	1756	1,0

Qashqadaryo viloyati klasterlarining o'rtacha samaradorligi va "Oqsaroy" klasterining samaradorlik ko'rsatkichlarining marjinal o'sishini tahlil qilamiz. 4 - jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, klasterlar 2019-2021 yillar davomida foyda bilan chiqmagan. Ammo keying ishlab chiqarishlar uchun yangi texnologiyalar, asosiy vositalar keltirilgan. "Oqsaroy" klasterida esa samaradorlik ko'rsatkichlari o'sib borgan. Qashqadaryo viloyati klasterlarining o'rtacha samaradorligi ko'rsatkichlarining marjinal o'sishini ko'rib chiqamiz.

4-jadval

**Qashqadaryo viloyati to'qmiachlik klasterlarining o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023
Sotishdan tushgan daromad ( $S_t$ )	Mrd. so'm	108,641	137,823	167,498	180,172	445,684
Xarajat $X_t$	Mrd. so'm	108,584	137,593	166,568	128,953	324,458
Texnologik transfer xarajatlari ( $t_t$ )	Mrd. so'm	187,601	114,402	242,027	77,068,0	445,231

$$D_{do'} = \frac{\Delta S_t}{\Delta t_t} = \frac{S_{t_2} - S_{t_1}}{t_{t_2} - t_{t_1}}$$

$D_{do'}$  – viloyat bo'yicha klasterlarning qo'shimcha bir so'mlik texnologik xarajat sarflash evaziga umumiy daromadning o'sgan qismi.

$\Delta S_t$  – viloyat bo'yicha sotishdan tushgan daromadning o'zgarishi.

$\Delta t_t$  – viloyat bo'yicha texnologik xarajatlarning o'zgarishi.

$$L_{do'} = \frac{\Delta X_t}{\Delta t_t} = \frac{X_{t_2} - X_{t_1}}{t_{t_2} - t_{t_1}}$$

$L_{do'}$  – viloyat bo'yicha qo'shimcha bir so'mlik texnologik xarajat sarflash evaziga umumiy xarajatning o'sgan qismi.

$\Delta X_t$  – viloyat bo'yicha umumiy xarajatlarning o'zgarishi.

$$D_{d2022-2023} = \frac{2546,25 - 179,621}{204,343 - 95,760} = \frac{75,004}{108760} = 0,69$$

$$L_{d2022-2023} = \frac{217,157 - 174,585}{204,343 - 95,760} = \frac{42,587}{10,876} = 0,39$$

Qashqadaryo viloyatida klasterlarning texnologik xarajatlarga nisbatan o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

➤ texnologik xarajatlarning bir milliardga oshirilishi daromadlarni 0,69 milliardga o'sishini ko'rsatadi.

➤ texnologik xarajatlarning bir milliardga oshirilishi xarajatlarning 0,39 milliardga o'sishini yuqoridagi hisob kitoblardan ko'rishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida klasterlarning texnologik xarajatlarga mablag' ajratilishi daromadining oshishiga olib kelgan. Ammo bu ma'lum texnologik davrni ichiga olib, qushimcha bir birlik  $D_d = L_d$  teng bulgunga qadar davom etadi. Xozirgi holatda esa viloyat hududida faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar  $D_d > L_d$  ( $0,69 > 0,39$ ) qo'shimcha innovatsion texnologiyalarga mablag' sarflash imkoniyati mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

5-jadval

## Qashqadaryo viloyati "Oqsaroy" klasterining samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarish, marta
Sotishdan tushgan daromad ( $S_t$ )	Mrd. so'm	108, 641	137,823	167, 498	180,172	445, 684	4,1
Xarjat $X_t$	Mrd. so'm	108, 584	137,593	166, 568	128, 953	324, 458	3,0
Texnologik transfer xarajatlari ( $t$ ) <sub>t</sub>	Mrd. so'm	187,601	114,402	242, 027	77,068,0	445, 231	2,4


$$D_{d2022-2023} = \frac{445,684 - 180,172}{445,231 - 77,068} = \frac{265,512}{368,163} = 0,721$$

$$L_{d2022-2023} = \frac{324,458 - 128,953}{445,231 - 77,068} = \frac{195,505}{368,163} = 0,53$$

"Oqsaroy" klasterining texnologik xarajatlarga nisbatan o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

➤ texnologik xarajatlarning bir milliardga oshirilishi daromadlarni 0,721 milliardga o'sishini ko'rsatadi.

➤ texnologik xarajatlarning bir milliardga oshirilishi xarajatlarning 0,531 milliardga o'sishini yuqoridagi hisob kitoblardan ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Innovatsion klasterlarning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmi

Ko'rinib turibdiki, texnologik transfer xarajatlar "oqsaroy" klasterining daromadining oshishiga sabab bo'lgan. Ammo bu bu ma'lum texnologik davrni ichiga olib,  $D_d = L_d$  teng bulgunga qadar davom etadi. Xozirgi holatda esa  $D_d > L_d$  ( $0,721 > 0,531$ ) qo'shimcha bir birlik innovatsion texnologiyalarga mablag' sarflash imkoniyati mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida klaster iqtisodiyotiga tegishli bo'lgan uyushgan kompleks disassimilyatsiyadan ko'ra assimilyatsiya (*ichkarida to'planish*)ning ustunligi bilan tavsiflanadi, ya'ni faoliyatni to'plash, bu uning uchun noqulay sharoitlarda ayniqsa muhimdir. Disassimilyatsiyaning ustunligi faoliyatning yo'qolishiga va shunga mos ravishda tizimning tashqi ta'siriga qarshilikning pasayishiga olib keladi. Klaster iqtisodiyoti konjugatsiya hodisasini o'zida aks yettiradi. Konjugatsiya, ingression va disgression kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Konjugatsiya jarayoni yelementlarning bir xillik, o'xshashlik, harakatning bir yo'nalishliliigi, bir-birini to'ldiruvchiligi va boshqalar tamoyillariga muvofiq bog'lanishi, shuningdek, ularning kombinatsiyasi natijasida "Zanjirli aloqa"ni tashkil yetishi bilan ta'minlanadi. Bu yesa klaster iqtisodiyotiga to'liq mos keladi. Yelementlar birikmasining paydo bo'lishi va o'zgarishi, xilma-xillikni keltirib chiqaradi hamda tashkiliy shakllarni o'zgartirib yangi tashkilot hosil qiladi.

2-rasmda keltirilgan innovatsion klasterning namunaviy tashkiliy iqtisodiy mexanizmi borzor iqtisodiyoti sharoitida M.Porterning "Erkin borzor" nazariyasiga asoslanib, unda innovatsion mahsulotlar va ishlanmalar ishlab chiquvchi klasterlar zanjiri ifoda etilgan. Ushbu mexanizm davlat aralashuvisiz mustaqil xususiy holda shakllantiriladi. Innovatsion klasterlar innovatsion tayyor mahsulotni istemolchilarga va innovatsion ishlanmalarni byurtmachilarga taklif etadi. Innovatsion mahsulotlar bozorinini onlayn va oflayn tarzda shakllantirilib, fyuchers bitimlari, tug'ridan tug'ri shartnomalar, hamkorlik shartnomalari va ayriboshlashning boshqa shakllaridan foydalangan holda iqtisodiy munosabatga kirishadilar. Mexanizm tashkiliy tuzulmaning hududlar buyicha vakilliklari real sektor, jismoniy shaxslar, davlat va boshqa byurtmachilar bilan shartnomalar imzolaydi. Shuningdek, innovatsion ishlanmalar taqdim qiluvchi oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari, texnoparklar, aholining innovator qatlami bilan hamkorlikni tashkil qiladi. Innovatsiyalarni thlil qilish bo'limi innovatsion mahsulotni tovar yoki iglanma sifatida innovatsiyalar bozoriga olib chiqishni taklif etadilar.

Umuman olganda, klasterning paydo bo'lishi, kamdan-kam istisnolardan tashqari, kombinatsiya ta'siri ostida o'z-o'zidan sodir bo'lishi lozim. Tadbirkorlik tashabbusini ayrim omillarning asosiysi deb hisoblash mumkin. Bu yesa klasterlarning shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Bir yoki ko'plab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan birgalikda foydalanish imkoniyati yoki zaruriyati bir nechta birlashtiruvchi omillariga bog'liq. Masalan: asosiy texnologiya, mahsulotlarni marketingni ilgari surish kanallari, kadrlar tayyorlash tizimi, yagona mahsulot sohasiga oid nou-xau yaratish tizimi.

### Xulosa va takliflar.

Klaster bir tomondan, trigger yeffektiga ko'ra tezda yangilash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, bu jarayonda xaridorlar bozordan oldinngi uzluksiz rivojlanishini eslashga majbur qiladi. Boshqa tomondan, klasterning barqarorligi tashqi va ichki salbiy buzilishlarga qarshi turish, mutanosib va barqaror holatni saqlash qobiliyati bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida harakat bir xil tuzilish, ishlash usuli va traektoriyasi nisbatan. Aynan klaster iqtisodiyoti sizga biznes konsepsiyasini yangidan qurish, odatiy modellarni o'zgartirish, o'zingizni boshqacha joylashtirish va raqobatbardoshlikning yangi joylarini topish imkonini beradi. Klaster ichidagi raqobat tizimni optimallashtirishga va ma'lumotlar almashinuviga, mutaxassislar, texnologiyalar tizimni rivojlantirishga, moliyaviy resurslarni o'tkazish imkonini beradi. Klasterni rivojlantirish uchun yeng zarur bo'lgan tarmoqlarga, zamonaviy iqtisodiyot global iqtisodiyot bilan tavsiflanadigan raqobat, o'zgarishlar, axborot va kommunikatsiyalarning yanada tezroq oqimi o'sib bormoqda. Bu yesa biznesning murakkabligi va keng tarqalgan



globallashuvni taqdim yetadi. O'zgarishlar tezligi shunchalik yuqori bo'ladiki, biz uning mohiyatida innovatsion biznesning yangi davri tug'ilishi haqida gapirishimiz mumkin. Bu yangi iqtisodiy va biznes muhitida zamonaviy texnologik yutuqlar bilan tavsiflanadi. Bozorlarda tez o'zgaruvchan o'yin qoidalari va moslashgan yangi xaridorning shakllanishi ham katta tezlikda o'zgaradi. Shunga ko'ra, ishlab chiqaruvchi talab muammolariga ham, atrofdagi bozor muhitidagi o'zgarishlarga ham moslashishadi.

Klasterni shakllantirish uchun quyidagi vositalar to'plamidan foydalanish lozim:

- tashkiliy va kommunikativ, jalb qiluvchi klasterni rivojlantirish va amalga oshirish mumkin bo'lgan kommunikativ muhitni rivojlantirish;
- yaratishni nazarda tutuvchi investitsiyalar jalb qilish, muhandislik yoki klasterni shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa infratuzilmani shakllantirish;
- tashkiliy va huquqiy, me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash. Bu xodimlar, axborot, marketing va boshqa dasturlarni o'z ichiga oladi.

Har qanday klaster ma'lum bosqichlar ketma-ketligidan o'tadi. Ular barcha klasterlar uchun bir xil bo'lmasligi mumkin. Ularning rivojlanish sur'ati har xil bo'lishi mumkin. Biroq, klasterlarning rivojlanishida ba'zi xarakterli jihatlarni aniqlashga imkon beradigan ichki mantiq mavjud. Yeng ko'p ishlatiladigan klaster bosqichlari quyidagilar bo'lishi lozim:

➤ strukturaviy - bosqichli, klaster strukturasi rivojlanishini dinamikada qayd yetish, uning asosiy vazifasi klaster tuzilmasida uning rivojlanishi uchun paydo bo'lishi kerak bo'lgan yangi yelementlarni aniqlashdan iborat;

➤ asosiy ishlab chiqarish va texnologik bosqichlarni belgilovchi ishlab chiqarish va texnologik ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi klasterdagi jarayonlar va asosiy infratuzilma;

➤ muammoli, potensial klaster tuzilmasi va mavjud vaziyat o'rtasidagi tafovutlarni qayd yetish yoki potensial klaster rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muammolar.

#### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

*www.viktorova-ts.ru (n.d.) Синергетический подход в управлении [Электронный ресурс] // Режим доступа: <http://www.viktorova-ts.ru>].*

*Ансофф, И. (1999). Новая корпоративная стратегия / И. Ансофф. – СПб.: Изд-во «Питер», 416 с.*

*Бабкин А.В., Бахмутская А.В., Кудрявцева Т.Ю. (2013) Разработка Эффективный механизм региональной промышленной политики // Экономический рост России. - № 4 (61). - С. 204.*

*Бабкин А.В., Шамина Л.К. (2008). Анализ использования методических подходов в управлении экономическими системами // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Серия «Экономика». № 1 (53). – Страницы 18-22.*

*Богданов, А.А. (1989). Тектология – всеобщая организационная наука. [Текст] – Т. I, II. – М.: Экономика.*

*Маршалл, А. (1993). Основы экономики / А. Маршалл. - М.: Издательство. "Прогресс", - Т.3. - 351 с.*

*Портер, М. (2005). Конкуренция. Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 608 с.*

*Савелева, Е. А. (2009). Создание промышленных кластеров и повышение конкурентоспособности Самарского региона / Е. А.Савелева // Вестник Самарского государственного аэрокосмического университета. - №3 - С. 178-192.*